

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.Sh.Shermuhammadov, A.U.G'ofurov Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining sport turizmiga doir bilimlarini rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik mazmuni	9
B.Sh.Shermuhammadov, D.R.Murodova Fanlararo integratsiya asosida bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining badiiy-estetik kompetentligini rivojlantirishning pedagogik modeli	16
N.M.O'rinova Xorijiy ta'limda tyutorlik faoliyatining mohiyati va funksiyalari	20
B.X.Baydjanov, M.R.Maxkamov Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy muloqot qilish qobiliyatlarini shakllantirish	24
B.A.Umarov Raqamli texnologiyalar vositasida pedagoglarning professional kompetentligini rivojlantirish tamoyillari	28
I.M.Saidov Vatanparvarlik va yuksak ma'naviy tarbiya - uchinchi renessans poydevorining omili	33
M.I.Alimjonova Ta'limning globallashuvi sharoitida talabalarda madaniyatlararo muloqot kompetentligini rivojlantirishning pedagogik mazmuni.....	37
I.I.Yo'lbarsova Talabalarda bioetik madaniyatni rivojlantirishning ijtimoiy-tarixiy an'analari hamda zamonaviy yondashuvlari.....	45
M.I.Alimjonova Talabalarni madaniyatlararo muloqot kompetentligini rivojlantirishning pedagogik modeli.....	49
F.A.Ibroximov, B.M.Jo'raqo'ziyev Mafkuraviy immunitet va uning zarurati	56
Z.J.Pardaeva Mustaqillik davri o'zbek romanchiligi: badiiy va ilmiy tafakkur masalalari.....	60
F.A.Ibroximov Huquqiy fanlarni o'qitilishidagi uzviylik va uzluksizlikning mavjud holati.....	70
L.D.Tuganova Gender va ta'limda tenglik muammosi.....	75
Sh.X.Tog'aeV Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish samaradorligini oshirishning ilmiy-uslubiy masalalari	78
A.R.Saydullayeva Talabalarda gender madaniyatini rivojlantirishning tuzilishi va tarkibiy qismlari	83
G.S.Raxmonova Nostandart tafakkur tarzini rivojlantirishda mustaqil ishlarning pedagogik imkoniyatlari.....	87
M.R.Usmanov O'tish davri yoshidagi ruhiy o'zgarishlarning rivojlanish xususiyatlari.....	93
X.Y.Jo'rayeva, M.T.Turkistonova Oliy ta'lim muassasalarida biologiya fanlarini o'qitishning nazariy asoslari	97
E.S.Yuldashyev Bo'lg'usi o'qituvchilarda suggestiv qobiliyatlarni rivojlantirishning ilmiy-pedagogik asoslari	101
G.B.Karimova Jismoniy tarbiya fanning interfaol ta'lim usullari va ularni innovatsion faoliyatini shakllantirish	107
F.O'.Toshboltayev Zamonaviy ta'limda pedagogik imkoniyatlar va axborot texnologiyalari integratsiyasini ta'minlash	111
S.D.Akzamov Jismoniy tarbiya fani bo'yicha sinfdan tashqari ishlarni bolalar va o'smirlar organizmiga ta'siri	115

TALABALARDA BIOETIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOY-TARIXIY
AN'ANALARI HAMDA ZAMONAVIY YONDASHUVLARI

СОЦИАЛЬНО-ИСТОРИЧЕСКИЕ ТРАДИЦИИ И СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ
РАЗВИТИЯ БИОЭТИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ СТУДЕНТОВ

SOCIO-HISTORICAL TRADITIONS AND MODERN APPROACHES OF THE
DEVELOPMENT OF BIOETHICAL CULTURE IN STUDENTS

Yo'lbarsova Ismigul Ibrohimjon qizi¹

¹Yo'lbarsova Ismigul Ibrohimjon qizi

– Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotasiya

Mazkur maqolada talabalarda bioetik madaniyatini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari dolzarb vazifa bo'lganligi, bu tarixiy jarayon va bioetika paydo bo'lishining tarixiy omillari, sabablari, muammoli jarayonlarini ko'rib chiqish va insoniy qadriyat hamda pedagogikaning bog'liqligi har qanday davr uchun ma'naviy ozuqa ekanligini yoritilgan.

Аннотация

В данной статье актуальна задача теоретико-методологических основ развития биоэтической культуры у студенческой молодежи, актуален данный исторический процесс и исторические факторы, причины, проблемные процессы возникновения биоэтики, связь общечеловеческой ценности и педагогики любой эпохи..

Abstract

In this article, the theoretical-methodological foundations of the development of bioethical culture among students is an urgent task, this historical process and historical factors, causes, problematic processes of the emergence of bioethics, and the connection between human value and pedagogy are relevant for any era.

Kalit so'zlar: Bioetika, texnika va globallashuv, madaniyatlararo munosabatlar, amaliy ko'nikmalar, uzluksiz ta'lim, individual sifatlari, iqtisodiy taraqqiyot, ta'lim standartlari, ta'lim va tarbiya, ilmiy-metodik, sub'yektiv yangilik.

Ключевые слова: биоэтика, технологии и глобализация, межкультурные отношения, практические навыки, непрерывное образование, индивидуальные качества, экономическое развитие, образовательные стандарты, образование и обучение, научно-методические, субъективные новости.

Key words: bioethics, technology and globalization, intercultural relations, practical skills, continuous education, individual qualities, economic development, educational standards, education and upbringing, scientific-methodical, subjective news

KIRISH

Dunyoning ijtimoiy-madaniy taraqqiyotining yangi bosqichida fan-texnika yutuqlari, biotexnologiyalarning rivojlanishi hamda ularning tibbiyot va sog'liqni saqlash va amaliyotiga keng joriy qilinishi natijasida yuzaga keladigan xavflarni aniqlash zarurati bugun barcha fan sohalari kabi pedagogikaning oldiga ham yechimini kechiktirib bo'lmaydigan masalalarni qo'ymoqda.

Insoniyat tarixi davomida inson huquqlari bir necha bor buzilgan, inson hayotida biomeditsinaning ilmiy yutuqlarida salbiy va ijobiy ta'sirlar bo'lgan va ishlab chiqarish jamiyatining rivojlanishi zarar etkazishi mumkin bo'lgan zarar hisobiga birinchi o'ringa qo'yilgan ekotizimlarda. Bunga javoban, tushuncha orqali, bir necha o'n yillar oldin umumiy axloqshunoslik bo'yicha yangi maydon yaratildi: bioetika.

Zamonaviy dunyo, texnika va globallashuv jarayonlari shiddatli rivojlanib borayotgan bir davrda axloqiy qadriyatni, odamiylik, insonparvarlik va shu kabi ijobiy sifatlarni saqlab qolish bugungi dunyoning dolzarb muammolaridan biridir. Inson, tibbiyot, texnikaning rivojlanib borish jarayoni insoniyat oldiga shu doirada hal qilinishi lozim bo'lgan ziddiyatli axloqiy muammolarni keltirib chiqardi.

Chuqur bilimlarni yuksak axloq va madaniyat bilan uyg'unlikda o'zida mujassamlashtirgan mutaxassislargina jamiyat ravnaqini ta'minlay oladi. Bugungi kunda ma'naviy jihatdan boy shaxsni voyaga yetkazish faqat ta'lim sohasining asoslaridan va dolzarb muammolaridan biri bo'libgina qolmasdan, balki milliy xavfsizlikni ta'minlash omili, huquqiy, ochiq fuqarolik jamiyatini shakllantirish vositasi, uning barqaror rivojlanishiga erishish sharti hamdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni asosida belgilangan 22-maqсад ijrosini ta'minlash,[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil

25-noyabrda PQ-4899-son "Biotexnologiyalarni rivojlantirish va mamlakatning biologik xavfsizligini ta'minlash tizimini takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori, 2020-yil 12-avgustdagi PQ-4805-son "Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-maydagi 275-son "Biologik xilma-xillik haqidagi konvensiyaning bioxavfsizlik bo'yicha Kartaxena protokoli (Monreal, 2000-yil 29-yanvar) qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda omillarni nafaqat ta'lim tizimida, balki oliy ta'limidan ham boshlagan holda talabalarda bioetik madaniyatini rivojlantirish, bioetik bilimlarni shakllantirishga tayyorlashning pedagogik tizimini takomillashtirishni ijtimoiy-pedagogik zaruratga aylantirmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ta'limda zamonaviy raqamli va axborot texnologiyalarining qo'llanilishi – bu dunyo ta'lim jarayoni rivojining muhim va ustuvor yo'nalishlaridan biri. Hozirgi kunga kelib ta'lim jarayonining deyarli barcha bo'g'inlarida va fan sohasida axborot texnologiyalari vositalaridan unumli foydalanish yo'lga qo'yilmoqda. Raqamlashtirish ta'lim olish jarayoniga chuqur kirib bormoqda. Raqamli texnologiyalariga asoslangan yangi ta'lim texnologiyalari ta'lim jarayonini jadallashtirish, o'zlashtirish tezligini oshirish, keng bilimlar omboridan axborotlarni qabul qilish, bu bilimlarni chuqur o'rganish va o'zlashtirish imkonini bermoqda.

Qadimgi davr mutafakkirlari Suqrot, Aflotun, Arastularning ilmiy-pedagogik fikrlari orasida tabiat va inson o'rtasidagi oqilona munosabat masalasi yetakchilik qilgan.

Bioetikada har bir insonga yaxshilik qilish hech bo'lmaganda hech kimga yomonlik qilmaslik axloqiy tushuncha sifatida yoritib beradi. Kantning fikricha, axloqiy qonun erkinlik tufayli sababiy (kauzal) qonun hisoblanadi va shak-shubhasiz, empirik maqsadlar bilan qat'iy hisoblashmagan holda tasdiqlanadi. Tarbiya madaniyati, ayniqsa, ta'lim muassasalari ishida alohida dolzarb masala hisoblanadi. Mashhur yunon donishmandi Arastu aytganiday, "Kimki bilimda ilgari lab, axloqda oqsaydigan bo'lsa, bilingki u oldinga emas katta tezlik bilan tubanlik sari ketibdi".

Inson salomatligi, sog'lom turmush tarzi, tibbiy madaniyatiga oid dastlabki qarashlarni bebaho ma'naviy meros «Avesto»da ham kuzatish mumkin. Unda ovqatlik mahsulotlar, ularning tarkibiy mutanosibligi, ovqatlanish rejimi va tartibi haqida ta'kidlanar ekan non hayot manbai, sut mahsulotlari kuch bag'ishlashi aytib o'tilgan. Ovqat tayyorlashga katta e'tibor qaratilgan, yaxshi va chiroyli niyatlar bilan tayyorlanishi, jahl chiqqanda esa tayyorlanmasligi kerakligi aytilgan. [2]

Bugungi kunda butun dunyoda hayotda, jamiyatning turli sohalarida bioaxloq qoidalariga amal qilish bo'yicha bahslar ketmoqda. Qadimgi yunon tilidan olingan bioetika (inson faoliyatining hayotda, tibbiyot va biologiyada hayvonlarga nisbatan munosabati bo'lib, ilk marotaba mazkur tushunchani 1927-yili Fris Jaxr tilga olgan bo'lsa, 1969-yili amerikalik onkolog va biokimyogar V.Potter uni muomalaga kiritdi. Van Rensseler Potter o'zining "Bioetika – kelajakka ko'prik" nomli asarida gumanitar fanlar hamda tabiatshunoslar, biologlar faoliyatini insonlar hayotini kamsitmaslik va hayvonlarga nisbatan do'stona muomalada bo'lishga chaqirdi. Uning fikricha "Yashab qolish ilmi nafaqat oddiy fan sifatida o'rganilishi, balki o'zida biologik bilim va umuminsoniy qadriyatlarni birlashtirgan yangi donolik bo'lishi lozim. Shu sababli mazkur yo'nalishni bioetika, deb atashni taklif etaman". 1999-yili Kosto-Rikada bioetika masalalariga bag'ishlangan anjumanda V.Potter nutq so'zlar ekan, "Men barchangizdan bioaxloqni mas'uliyat, kompetentlik talab qiluvchi hamda barcha madaniyatlarni o'zida mujassam etgan va gumanizmni targ'ib etayotgan yangi etika ta'limoti sifatida qabul qilgan.

"Bioetika" atamasi ilmiy iste'moldagi nisbatan yangi atama hisoblanadi. Ushbu atamani paydo bo'lishi haqida ilmiy adabiyotlarda ikki xil qarash mavjud. Ayrim manbalarda [3]ushbu atamani Amerikalik mashhur onkolog vrach Van Ranseler Potter (1911-2001) ilk bor ilmiy muomalaga kiritgan, degan yondashuvlar mavjud va bu asosan rus tilidagi manbalarda uchraydi. Ingliz va nemis tilidagi ayrim manbalarda [4]esa, nemis ilohiyotchisi Frits Jaxr 1927-yil "Kosmos" jurnalida e'lon qilgan maqolasida "Bio-Ethik" terminini ishlatgani ammo, amerikalim olim V.R. Potter tomonidan ushbu atama yaxshiroq ifodalanganligi aytib o'tilgan.

NATIJARLAR

Bugun dunyoning ilmiy manzarasi tubdan o'zgarimoqda. Barcha sohalarida bo'lgani kabi zamonaviy pedagogikada ham yangi masalalar va muammolar baxs maydoniga kelmoqda. Tabiiy fanlar doirasida misli ko'rilmagan yutuqlar qo'lga kiritilmoqda. Fan va texnologiyalarning rivoji

natijasida tibbiyot sohasidagi tadqiqotlarni yangi yo'nalishlariga asos solinmoqda. O'tgan asrning ikkinchi yarmida, tibbiyot-biologiya fanlarining pedagogik metodologiyasi va istiqbolli texnologiyalarini rivojlanishiga zamin yaratmoqda. Sababi tibbiyot sohasidagi ko'plab yangi texnologiyalar jamiyat hayotiga samarali tadbiiq etilmoqda.

MUHOKAMA

Ma'lum ma'noda bioetika O'zbekistonda yangi fan tarmog'ini shakllanishiga ta'sir etdi.

1994-yildan jahonning barcha tibbiyot maktablariga bioetika kursini kiritish haqidagi JSST tavsiyalari bilan O'zbekiston davlat ta'lim tizimiga bioetika fani kiritilmagani o'rtasidagi tafovut mavjud edi. O'zbekistonda bioetika bo'yicha tadqiqotlar 1998-yil uning tarkibiga kirgandan keyin boshlandi.

"2003-2004-yillarda 1-ToshDTUda vrachlar malakasini oshirish (DTD) bioetika fakultativ kurs sifatida taklif qilingan. Prof. Z.Muhamedova muallifligida 2004, 2005, 2007, 2009, 2015-yillarda bioetika bo'yicha o'quv qo'llanma, monografiya, darsliklar chop etildi".[5] O'zbekiston, Gruziya, Moldava, Rossiya va Tojikistonda bioetika davlat o'quv standartiga kiritilgan.

O'zbekistonlik olimlardan B.Ziyomuxamedov, A.S.To'xtayev, E.V.Qodirov, O.Qudratov, J.Xolmurodov, A.N.Nigmatov kabilar o'z tadqiqotlarida bioetika tushunchasi, uning mazmuni, atrof-muhit va inson munosabatlarining turli iqtisodiy, tabiiy, ijtimoiy aspektlari, ekologik ta'limning ijtimoiy-falsafiy jihatlarini o'rgandilar. L.T.Shonosirovaning ilmiy tadqiqotida maktabgacha yoshdagi bolalarda ekoetik kompetentlikni shakllantirish masalalari tadqiq etilgan. M.A.Yuldashev, M.M.Abdullayeva, N.Ashurovalarning ilmiy tadqiqotlarida boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik bilimni shakllantirish, P.S.Sultonov va B.P.Ahmedovlarning kitobida ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish asoslariga oid masalalar tadqiq etilgan. Pedagog olimlardan I.Sh.Ismatov atrof-muhitga nisbatan mas'uliyatli munosabatni maktab o'quvchilarida anorganik kimyo fani asosida shakllantirish borasida, M.R.Xalilova ekologik ta'lim va tarbiya jarayonida o'z e'tiborini maktabgacha ta'lim muassasalarida katta guruh yoshidagi bolalarda ekologik tushunchalarni shakllantirish, N.O'.Nishonova esa adabiy ta'lim jarayonida, aniqrog'i uning ko'magida umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarining ekoetik kompetentligini rivojlantirish muammolarini tadqiq qilishgan. M.B.Rahimqulova tadqiqotining o'ziga xosligi unda ekologik qadriyatlarni darsdan tashqari mashg'ulotlar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida shakllantirish masalasiga bag'ishlangan.

Bioetika insoniyat egallagan va egallamoqchi bo'lgan barcha bilimlarning uning kelajagiga, ma'naviy-axloqiy yuksalishiga xizmat qilishni ta'minlashga, nazorat qilishga qaratilgan ijtimoiy faoliyat va madaniy qadriyatdir. Insonning biosotsial mavjudot sifatida "tabiat"ga va "madaniyat"ga bo'linishi fanlarni tabiiy va ijtimoiy fanlarga ajralishiga olib kelgan". Shuning uchun biz bioetikani tabiiy fanlarning yutuqlari ularni ijtimoiy samarasiga ko'ra baholay boshlangan davrda, tabiiy va ijtimoiy fanlar chegarasida vujudga kelgan bioijtimoiy fanlar toifasiga mansub deb hisoblaymiz.

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, Oliy ta'lim muassalarida talabalarni tibbiy madaniyatini oshirish, pedagogic kasb axloqini yanada yuksaltirish, tibbiyotning tom ma'noda insonparvarlashtirish, inson huquqlari masalalariga jiddiy e'tibor qaratish natijasida yuqoridagi muammolar o'z yechimini topadi. Jamiyatda ijtimoiy xotirjamlik, barqarorlik, aholining turmush tarzining yuksalishi kabi ijobiy tendensiyalar kuzatiladi.

Bioetika fan sifatida vujudga kelishi va taraqqiy etishida zamonaviy fanlar orasida ilmiy munosabat va aloqalarning ortishi tufayli yuzaga keldi. Bu fan o'zida sotsial, pedagogik hamda biologik omillar birligini ifodalab, ilmiy bilimlar va umuminsoniy, axloqiy qadriyatlar to'qnashuvi doirasida yuzaga kelgan ziddiyatlarni bartaraf etishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Sass, Xans-Martin (2007). Fritz Yaxrning 1927 yilgi bioetika tushunchasi. Kennedi Inst axloqi J. 17 (4): 279-95.
2. Lolas, Fernando (2008). "Bioetika va hayvonlarni tadqiq qilish: shaxsiy nuqtai nazar va Fritz Yahrning hissasi to'g'risida eslatma". Biologik tadqiqotlar (Santayago). 41 (1): 119-23. doi: 10.4067 / S0716-97602008000100013. PMC 2997650. PMID 18769769.
3. Goldim, J. R. (2009). Bioetika boshlanishini qayta ko'rib chiqish: Fritz Yahrning hissalar (1927). Perspekt Biol Med, Sum, 377-80.
4. Martensen R (2001 yil aprel). "Bioetika tarixi: insho sharhi". Tibbiyot tarixi va ittifoqdosh fanlari jurnali. 56 (2): 168-175. doi:10.1093 / jhmas / 56.2.168. PMID 11392084 - MUSE loyihasi orqali.
5. Bracanovic, T (iyun 2012). "Integratsion bioetikadan psevdologiyaga". Rivojlanayotgan dunyo bioetikasi. 12 (3): 148-56. doi: 10.1111 / j.1471-8847.2012.00330.x. PMID 22708689.
6. Mukhamedova Z. M. Bioethics in Uzbekistan: History, Issues, Prospects //Asian Bioethics Review. - 2015. - T. 7. - №. 5. - C. 501-511.

7. Мухамедова З. М. Интеграция гуманитарных наук в медицинское образование: проблемы и перспективы //Journal of Health Development. - 2019. - №. 1 (30). - С. 37-45.
8. Mukhamedzhanovna M. Z. et al. Bioethics-Paradigm of Humanization of Medical Education //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. - 2021. - С. 125-133.
9. Mukhamedzhanovna M. Z., Akmalovna U. N., Nugmanovna M. A. The Uzbek Model of Bioethics: History and Modernity //Malim: jurnal pengajian umum asia tenggara (SEA Journal of General Studies). - 2020. - Т. 21.
10. Мухамедова З. М. Этические категории в клинической стоматологии //Гуманитарный трактат. - 2017. - №. 15. - С. 22-25.